“OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDAGI AYRIM FRAZEOLOGIZMLARNING BADIIY VAZIFASI

Turdiyeva Aziza Sobir qizi
Guliston davlat pedagogika instituti
3-bosqich talabasi
azizaturdiyeva070@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozuvchi Tog‘ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” asarida qo‘llanilgan ayrim frazeologizmlarning badiiy vazifasi ko‘rib chiqiladi. Frazeologizmlarning mazmun-mohiyati, asardagi o‘rni, qahramonning ruhiy holatini ifodalashdagi faol ishtiroki yoritib beriladi. Shuningdek, asarda qo‘llanilgan iboralarning xalqona ruh, obrazlilik va emotsional ta’sirchanlikni kuchaytirishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Tog‘ay Murod, frazeologizmlar, xalq tili, badiiy ifoda, badiiy vosita, xalqona uslub.

Dunyodagi har bir millatning tili o‘zi uchun qadrli. Til millatning boyligini, dunyoqarashini, buguni va ertasini, qadriyatlarini belgilovchi muhim vosita ekanligi hech birimizga sir emas. Binobarin, bugungi rivojlanayotgan zamonda tilning qadriyatlarini asrab-avaylash juda muhimdir. Badiiy asarlar tilimizning boyligini, xalqimizning ruhiy olamini va qadriyatlarini yanada teranroq namoyon etadi. Tilning badiiy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vositalardan biri frazeologizmlardir. Frazeologik birliklar tildagi so‘zlarning oddiy qo‘shilishidan farqli ravishda, ko‘chma ma’no kasb etib, xalqnng hayot tarzi, urf-odatlari, madaniyati va ruhiyatini o‘zida mujassam etadi. Badiiy adabiyotda frazeologizmlar qahramonlarning ichki kechinmalari, xarakterini jonli tasvirlashda, asarga xalqona ruh bag‘ishlash, uning o‘qishliligini oshirishda muhim vazifa bajaradi. Shu bois frazeologizmlarni bugungi kunda keng tarzda o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biridir.

O‘zbek adabiyoti namoyondalarining asarlarida barqaror birikmalarning eng sara namunalarini uchratishimiz mumkin. Shunday ijodkorlardan biri o‘zbek xalqining atoqli adibi Tog‘ay Muroddir. Yozuvchi asarlarida uchraydigan har bir barqaror birlik millatimizning milliy qadriyatlari, urf-odat va an’analari, surxon xalqining o‘ziga xos til va so‘zlashuv imkoniyatlarini ifoda etadi. Fikrimizning isboti sifatida mazkur maqolada yozuvchining “Oydinda yurgan odamlar” asarida uchraydigan ayrim frazeologizmlarning badiiy vazifasi bilan tanishib chiqamiz.

1. **Qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urmoq.** *“Aqalli, bir, bir yomonligimizni ko‘rsa bo‘ldi! Bizdan qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa uradi. Biz bilan salom-alik qilmaslik payida bo‘ladi”.* Mazkur ibora “biror kimsa yoki narsadan ko‘ngli qolmoq, hafsalasi pir bo‘lmoq” kabi ma’nolarni bildiradi va qahramonning ruhiy holatini ifodalab keladi. Asardan keltirilgan parchada ham aynan shu holat kuzatilib, qahramonning boshqalardan bo‘lar-bo‘lmas narsalar uchun ham ko‘ngli qolib ketish holati ifodalangan. Demak, mazkur ibora qahramon xafalik darajasining har qanday shakli uchun: biroz yoki tamoman ko‘ngil qolishidan qat’iy nazar qo‘llanilishi mumkin.

2. **Ko‘ngliga olmoq.** *“Sag‘ir sertamiz bo‘ldi. Hayotda bo‘lmish ilkis qiliqlar, iring gaplarni darhol ilg‘ab oldi. Eng yomoni ko‘ngliga oldi!”*. Ushbu ibora ham “arzimagan narsaga xafa bo‘lmoq” ma’nosini ifodalaydi hamda yuqoridagi ibora bilan sinonimlik hosil qila oladi. Iboraning emotsional bo‘yoqdorligi kuchli. U nafaqat ma’noni, balki milliy mentalitetni ham aks ettiradi, chunki barchamizga ma’lumki o‘zbek xalqida ko‘ngil tushunchasi juda keng ma’no ifodalaydi. U mehr, or, hayo, g‘urur, sevgi kabi tuyg‘ular markazida turadi kishining his-tuyg‘u va kechinmalari manbayi; yurak, qalb, dil[1, 864-b]. O‘zbek tilida mazkur so‘z ishtirok etgan iboralar juda ko‘p uchraydi. Ko‘ngliga qo‘l solmoq, ko‘ngil bermoq, ko‘ngliga olmoq, ko‘nglida kiri yo‘q, ko‘ngli to‘q, ko‘ngli ketmoq kabi va boshqa iboralar shular jumlasidandir.

3. **Ko‘ngliga qo‘l solmoq.** *“Keyin qaynisinglisi ko‘ngliga qo‘l soldi: -Sen nima deysan?*”. “Ko‘ngliga qo‘l solmoq” iborasi “kimningdir eng yashirin fikr-o‘yini bilishga harakat qilmoq” na’nosini bildiradi va “yuragiga qo‘l solmoq” iborasi bilan sinonimlik hosil

qiladi. Asarda bu ibora qahramonning ichki sezgirligini, atrofdagilarning ruhiy holati va ichki kechinmalarini bilishga bo‘lgan intilishini ifodalash uchun qo‘llanilgan. Ushbu ibora fraziologik birlik sifatida o‘zbek tilshunosligida muhim ahamiyatga ega.

4. **Cho‘k tushmoq. “***Kelin akasi domla qoshiga cho‘k tushdi”.* Mazkur birikma ham fe’lli birikma sifatida, ham ibora sifatida qo‘llanilib keladi. Agar fe’lli birikma vazifasida kelsa, “suvga cho‘kmoq, g‘arq bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Birikmaning o‘zagi bo‘lgan “cho‘kmoq” so‘zi cho‘kish, g‘arq bo‘lish holatini ifodalaydi[2, elektron manba]. Masalan: “kema cho‘k tushdi”. Ibora sifatida kelganida esa “o‘tirmoq”, “tizzalamoq” ma’nolarida ishlatiladi.

5. **Mijja qoqmoq. “***Momolar mijja qoqmadi. Kuyov-qayliqni qo‘riqlab o‘tirdi”.* “Mijja qoqmoq” iborasi o‘zbek tilshunosligi o‘quvchilariga juda yaxshi tanish: “uxlamaslik”, “ko‘zini ham yummaslik” ma’nolarini bildiradi. Ushbu ibora orqali yozuvchi xalqona nutq, millatning qadriyatlarini ifodalab kelgan va asarning hissiy ta’sirchanligini kuchaytirgan.

6. **Oyoq ilmoq.** *“Sen gapir, qirdan qaytib, zardolilar ostida oyoq ilganmizni, men senga zardoli terib berganimni”.* Mazkur ibora “to‘xtamoq” (yo‘ldan) ma’nosini ifodalaydi[3, elektron manba]. Jumlada bu ibora qahramonlarning o‘tgan shirin onlarini, sokin, samimiy lahzalarni, ikki qalbning sof muhabbatga yo‘g‘rilgan damlarini eslash holatini ifodalashga xizmat qilgan va yozuvchining so‘z qo‘llash mahoratini yana bir bor isbotlagan.

7. **Yuragini hovuchlamoq.** *“Qoplon yuragini hovuchladi. –Yo pirim-e, yo pirim-e, - deya pichirladi”.* “Yuragini hovuchlamoq” iborasi asarda “biror hodisa yoki voqea yuz berishida qo‘rqqan holda yuragi siqilmoq”, “ich-ichidan xavotir va hayajonni his etmoq” ma’nosida qo’llangan. Bu frazeologizm qahramonning ichki kechinmalarini, ruhiy beqarorlik va qo‘rquv holatini jonli ifodalash uchun xizmat qiladi.

8. **Yelkasidan nafas olmoq.** *“Ana shunda Qoplon yelkasidan nafas oldi. Bo‘g‘zidagi holvani yutdi, og‘zidagi holvani chaynadi”.* Ushbu ibora o‘zbek frazeologizmlarining naqadar rang-barang ekanligiga yana bir isbotdir. Ibora “yengillashmoq”, “ko‘ngli joyiga tushmoq”, “yelkasidan tog‘ ag‘darilgandek bo‘lmoq” ma’nolarini ifodalaydi. Asardagi jumlada esa qahramonning og‘ir kechinmadan keyingi ruhiy yengillikni his etishini ifodalab bergan.

9. **Ko‘z solmoq.** *“Xursandboy davraga ko‘z soldi. Ayollar orasida mung‘ayib o‘tirmish Oymomoni ko‘rib qoldi”.* Mazkur ibora “qaramoq”, “nazar tashlamoq” ma’nolarini ifodalaydi. Asarda bu frazeologizm biror narsa yoki shaxsga e’tibor qaratish, uni kuzatish yoki kimnidir qidirish ma’nolarida qo‘llanilgan.

10. **Yuragini yormoq.** *“Sardor qiz bolani bir mushtladi. O‘l-a, yuragimni yording-ku! – dedi”.* “Yuragini yormoq” iborasi o‘zbek tilshunosligida bir nechta ma’nolarni ifodalaydi. Masalan, “birovni qattiq qo‘rqitmoq, cho‘chitmoq” yoki “dilidagini ma’lum qilmoq, aytmoq” kabi. Asardagi jumlada esa birinchi ma’noda, ya’ni qo‘rqitmoq ma’nosida qo‘llanilib kelgan.

Har bir yozuvchining o‘ziga xos yozish uslubi bor. Ayniqsa, yozuvchi Tog‘ay Murodning ijodida hech bir ijodkor asarida uchramaydigan unsurlar talaygina. Yozuvchi ijodida surxon xalqining o‘ziga xos so‘zlashuv uslubi, qadriyat va an’analari namoyon bo‘ladi. Shuningdek, yozuvchi asarlarida dialektlar, xalqona ifodalar, jumladan frazeologizmlar muhim badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Adib ularni o‘z asarlarida xalq tili ruhiga xos tabiiylik bilan qo‘llaydi. “Oydinda yurgan odamlar” asarida uchraydigan iboralar nafaqat til boyligini, balki asar qahramonlarining ichki kechinmalari, ruhiy holati kabilarni chuqur ifodalashga ham xizmat qiladi. Har bir frazeologizm o‘ziga xos vazifa bajarib, asarning hissiy ta’sirchanligini oshiradi. Xulosa qilib aytganda, Tog‘ay Murod xalq tili boyliklaridan mohirona foydalangan holda o‘ziga xos uslub yaratgan yozuvchidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” 2022
2. Uz.wiktionary.org.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati; 2014-2025
4. Tog‘ay Murod “Oydinda yurgan odamlar”. Mutolaa. Toshkent 2024